

рассматриваются материалы, используемые в оформлении фасадов и интерьеров современных мечетей, а также орнаментальные элементы прикладного искусства.

**SUMMARY.** The classical architecture of Uzbekistan has astonished the world with its uniqueness. This article analyzes, from an art historical perspective, the essence of the architecture and decorative elements of mosques built during the era of New Uzbekistan. It explores the harmony between traditional Islamic architectural styles and modern design elements, as well as the characteristics of calligraphic inscriptions in religious structures. The research examines the materials used in the decoration of façades and interiors of contemporary mosques, along with applied ornamental patterns.

## IJTIMOIIY MADANIYATDA XOTIN-QIZLARNING O'RNI

**Shahnoza Rustamaliyeva** – *tayanch doktorant*  
*O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti*

**Tayanch so'zlar:** ijtimoiy madaniyat, xotin-qizlar, ijtimoiy faollik, olim ayollar, gender tenglik.

**Ключевые слова:** социальная культура, женщины, социальная активность, женщины ученые, гендерное равенство.

**Key words:** social culture, women, social activism, women scientists, gender equality.

*“Oilada bir nafar qiz o'qib, oliy ma'lumotga,  
zamonaviy kasb-hunarga ega bo'lsa,  
xonadondagi muhit butunlay o'zgaradi”.*

**Sh.Mirziyoyev.**

### KIRISH

Har qanday jamiyat va davlatning nechog'li insonparvar hamda adolatli ekanligi uning xotin-qizlarga bo'lgan munosabati va g'amxo'rliqi bilan belgilanadi.[1] Mamlakatimizda ham xotin-qizlarning qonuniy huquq va manfaatlarini ta'minlash, ularning iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy faolligini oshirish Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasining muhim yo'nalishlaridan biri sifatida belgilab qo'yilgan. Shuni alohida qayd etish lozimki, uzoq yillar davomida xotin-qizlar masalasiga kompleks yondasha olinmadi. Afsuski, bu kabi holat hamon mavjud bo'lib, yordamga muhtoj xotin-qizlar muammosi baribir jamiyatning dolzarb muammosi bo'lib qolmoqda. Bugungi kungacha ayollar muammolarining oqibati bilan ishlab kelindi endilikda esa, ularning oldini olish muhimroq ekanligini englab yetdik.

Natijada, mamlakatimizda xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy follingini ta'minlash yo'nalishida 2022-2026-yillarda xotin-qizlarning mamlakat iqtisodiy, siyosiy va ijtimoiy hayotining barcha jabhalarida faolligini oshirish bo'yicha Milliy dastur, 2030-yilga qadar O'zbekiston Respublikasida gender tenglikka erishish strategiyasi qabul qilindi. Bugun yurtimizda xotin-qizlarning mavqeini yuksaltirish, ularning jamiyatdagi faolligini ta'minlash maqsadida ularning ta'limiga katta e'tibor qaratilmoqda. Sababi davlat va jamiyat taraqqiyoti ilm-ma'rifatli fuqarolarga bog'liq. Ma'rifatli jamiyatni esa millat

onalari tarbiyalaydi. Ta'lim sohasini rivojlantirish yo'lida, jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 7-martdagi PF-87-sonli farmoniga ko'ra, xotin-qizlarning magistraturada o'qishi to'liq davlat granti hisobiga amalga oshirilishi yo'lga qo'yildi. Farmonga muvofiq, har yili davlat oliy ta'lim muassasalarining magistratura bosqichida o'qiyotgan barcha xotin-qizlarning kontrakt to'lovlarini qaytarish shartisiz qoplash maqsadida, davlat budjetidan har yili kamida 200 milliard so'm moliyalash tizimi yo'lga qo'yildi.

### ADABIYOTLAR TAHLILI

Xotin-qizlar ta'limini qo'llab quvvatlash maqsadida 2023/2024-o'quv yilidan ta'lim kontraktlarini to'lash uchun qizlarga ilk marotaba 7 yil muddatga foizsiz kredit berish joriy qilindi. Buning uchun, 2022-yilda banklarga 1 trillion 800 milliard so'm, 2023 va kelgusi to'rt yilda 8 trillion so'm mablag' ajratilishi belgilangan. Shuningdek, magistraturada o'qiyotgan qizlarning kontrakt pullari to'liq byudjetdan qoplab berilishi, ehtiyojmand oila vakillari, otasi yoki onasini yo'qotgan talaba qizlarning ta'lim kontrakti mahalliy byudjetdan to'lanishi yo'lga qo'yildi. Jamiyatimizda olim ayollar ulushini sezilarli oshirish uchun doktorantura yo'nalishida xotin-qizlar uchun har yili kamida 300 tadan maqsadli kvota ajratilmoqda[2]. Magistraturaga o'qishga kirgan xotin-qizlarning o'qishi esa, to'liq davlat hisobidan byudjet asosida amalga oshirilmoqda.

Bu davlat tomonidan katta g'amho'rlik. Chunki aynan moliyaviy yetishmovchilik sababli o'qiyolmayotgan xotin-qizlar atrofimizda talaygina. Xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy faolligi davlat boshqaruvi tizimida samarali faoliyat ko'rsatishi, liderlik hislatlarini shakllantirish ulardagi bilimga, ma'lumotga bevosita bog'liqdir. Jamiyatimizda ijtimoiy-siyosiy faol ayollarning 90 foizdan ziyodi oliy ma'lumotlidir[3]. Ushbu omil ularning javoblarida aks etishi tabiiy hol edi. Shuning uchun ham ular ayol liderga oliy ma'lumot zarur deb biladilar. Oliy o'quv yurtlarida xotin-qizlar soni 50 foizdan kam bo'lmasligi tarafdorlarini qo'llab quvvatlash, ayollarning mamlakat siyosiy hayotidagi to'laqonli ishtirokini ta'minlash, gender tenglik va reproduktiv salomatlik bo'yicha olib borilayotgan davlat siyosatiga jahon hamjamiyati ya'ni, BMT, Xalqaro mehnat tashkiloti, UNICEF, Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti kabi nufuzli xalqaro ixtisoslashgan muassasalar tomonidan yuqori baho berilmoqda. Bunday ijobiy o'zgarishlarga yurtimizda davlat rahbari boshchiligida xotin-qizlarning jamiyat hayotida munosib o'rin egallashi, ularning ijtimoiy nufuzini yanada yuksaltirishga qaratilgan salmoqli ishlar poydevor bo'lmoqda.

#### MUNOZARA

Har qanday davlatda ayollarning ijtimoiy faolligi jamiyatda sodir bo'layotgan o'zgarishlarning ishonchli ko'rsatkichi bo'lib, u jamiyat taraqqiyoting imkoniyatlarini belgilab beradi. Shunday ekan, demokratik huquqiy davlat va fuqarolik jamiyati asoslarini shakllantirishni xotin-qizlar ishtirokisiz tasavvur etib bo'lmaydi. Birlashgan Millatlar Tashkiloti tomonidan Bosh Assambleyasining 1979-yil 18-dekabrda qabul qilingan "Xotin-qizlarni kamsitishning barcha shakllariga barham berish to'g'risida"gi konvensiyaning 26-moddasi (a) bandida shunday deyilgan: "Erkaklar bilan ayollar o'rtasidagi tenglik tamoyilini, agarda bu xozirgacha qilingan bo'lmasa, milliy Konstitutsiyaga va boshqa tegishli qonunlarga kiritish hamda qonun va boshqa tegishli vositalar yordamida ushbu tamoyilni amaliyotga joriy etishni ta'minlash"[4].

O'zbekiston Respublikasining 2023-yil 30-aprelda qabul qilingan yangi Konstitutsiyasida ham xotin-qizlar huquqiy jihatdan erkaklar bilan teng maqomga ega ekanligi ta'kidlangan. Hususan, 58-moddada "Xotin-qizlar va erkaklar teng huquqlidirlar. Davlat xotin-qizlar va erkaklarga jamiyat hamda davlat ishlarini boshqarishda, shuningdek jamiyat va davlat hayotining boshqa sohalarida teng huquq va imkoniyatlarni ta'minlaydi"[5].

#### NATIJALAR

Mustaqillik yillarida xotin-qizlarning jamiyatdagi ijtimoiy faolligini oshirish, ularning qonuniy huquq va erkinliklarini ta'minlash, ularning manfaatlari davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylandi. Ularni amalga oshirish uchun qo'shimcha shart-sharoitlar yaratilmoqda. Bugungi o'zbek jamiyati jinsi, dini, etnik kelib chiqishidan qat'i nazar, har bir shaxsning teng huquqliligi g'oyasiga asoslanadi. Erkaklar va ayollar ta'lim olish huquqidan teng foydalana oladi. Oilalarda, bolalar bog'chalarida va maktablarda barcha teng bo'lishi kerak, barcha teng, hurmatga loyiq va hayotda o'z tanlovini qilish huquqiga ega va hech kim boshqa bir insonga nisbatan zo'ravonlik yoki tajovuz qilishga haqli emas degan g'oya bilan tarbiyaviy ishlar boshlandi[6].

Jamiyatda ayollarning ma'naviy olamini boyitish, ularning faolligini o'Ichaydigan yana bir omil bu ularning bilimliligi. O'qimishli ayollar ham mamlakat rivijoga hissa qo'shadi, ham oilasida yuksak ma'naviy muhitni yaratadi. Prezidentimiz ta'biri bilan aytganda, "Bitta qizni o'qitsangiz – butun oilani o'qitgan bo'lasiz"[7]. Agar bir erkak ilmi bo'lsa u o'z kasb doirasida ilmini ulashadi, agar ayol ilmi bo'lsa u butun jamiyatni ziyoli qiladi. Boisi millat davomchilari bo'lgan bolalar asosiy vaqtini onasi bilan o'tkazadi, tarbiyaning katta qismini onadan oladi. Misol uchun, 2021-yilda maktabgacha ta'lim bilan qamrab olingan 3–6 yoshli bolalar ulushi 62 foizni tashkil etgan bo'lsa, 1–6 yoshli bolalar orasida bu ko'rsatkich 30 foizga ham yetmagan, ya'ni, bolalarning taxminan 40–70 foizi to'liq ravishda uyda onalari tomonidan tarbiyalanadi[8]. Ilmi ona yomon hulqli inson tarbiyalamaydi, zero, oilaviy muhit, tarbiya bolaning hulqida aks etadi va butun kelajak hayotiga ta'sir qiladi.

#### XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa qilib aytganda, jamiyatda siyosiy ijtimoiy muhit barqarorligi va taraqqiyoti ayollarga, yoshlarga, oilaga bo'lgan munosabat va e'tibor bilan bevosita bog'liqdir. Shunday ekan, Ilm-fan va innovatsiyalar samaradorligini oshirishda poydevorini yaratishda xotin-qizlarning jamiyatdagi o'rni va rolini mustahkamlash, ularning bilimi, zamonaviy mutaxassis, malakali kasb egalari bo'lishlari hamda sog'lom va mustahkam oila qurishlari uchun zarur shart-sharoitlar yaratish, birinchi navbatda sog'lom bola tug'ilishi va uni tarbiyalash, onalar va bolalar sog'lig'ini muhofaza qilish kabi muhim masalalarga e'tibor qaratilishi bilan bir qatorda

xotin-qizlarga nisbatan har qanday zo'rvonlik va tazyiqlarning oldini olish bugungi kunning eng dolzarb vazifasi ekanligini O'zbekistonda istiqomat qilayotgan har bir inson ongli ravishda

tushunib yetishi va uni amalga oshirishda ko'maklashishi Yangi O'zbekistonni barpo etish g'oyasiga muvofiq bo'ladi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Oila va xotin-qizlar davlat qo'mitasi raisi Ozoda Parpiboyevaning "Yangi O'zbekiston: taraqqiyot, innovasiya va ma'rifat" mavzusida o'tkazilayotgan Xalqaro sheriklik tashabbuslari haftaligi doirasida "Xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash bo'yicha O'zbekiston tajribasi" mavzusida Xalqaro ayollar forumidagi nutqi. 5.07.2023 / Manbaa: [aniq.uz](http://aniq.uz)
2. Prezident Shavkat Mirziyoyev ishtirokida ayollarning jamiyatdagi o'rnini mustahkamlash yuzasidan videoselekt yig'ilishidagi davlat rahbari nutqidan. [Avlod.media.uz](http://Avlod.media.uz)
3. N.Nishonova. "O'zbekiston taraqqiyotida zamonaviy lider ayol". O'zMU "Ijtimoiy gumanitar fanlarning dolzarb masalalari" nomli konferensiya material. 2022-yil 3-tom, 847-bet.
4. Xotin-qizlarni kamsitishning barcha shakllariga barham berish to'g'risidagi konvensiyaning 26-moddasi (a) bandi.
5. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. 2023-yil 30-aprel // [manbaa: lex.uz](http://manbaa.lex.uz)
6. "Xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash bo'yicha O'zbekiston va Islom hamkorlik tashkiloti (IHT)GA a'zo mamlakatlar tajribasi" mavzusidagi xalqaro forum. O'zbekiston Oila va xotin-qizlar qo'mitasi raisi Ozoda Parpiboyeva nutqi. Manbaa: O'zbekiston milliy axborot agentligi. [uza.uz](http://uza.uz)
7. Prezident Sh.Mirziyoyevning 8-mart Xalqaro xotin-qizlar kuniga bag'ishlangan bayramdagi nutqi. Yangi O'zbekiston. 2022-yil 8-mart, 49-son.

**REZYUME.** Ushbu maqolada ijtimoiy madaniyat jarayonlarida xotin-qizlarning tutgan o'rni va ularning jamiyat taraqqiyotidagi hissasi tahlil qilinadi. Bugungi kunda xotin-qizlarning madaniy hayotdagi faolligi ta'lim va ijtimoiy sohalardagi ishtiroki haqida so'z yuritiladi. Maqolada shuningdek, gender tengligi, ayollarning huquqiy maqomi va ijtimoiy faolligini oshirishga qaratilgan davlat siyosati ham tahlil qilinib, jamiyatning barqaror rivojlanishida xotin-qizlarning roli muhim omil ekanligi alohida ta'kidlanadi.

**РЕЗЮМЕ.** В данной статье анализируется роль женщин в процессах социальной культуры и их вклад в развитие общества. Сегодня говорят об активизме женщин в культурной жизни, их участии в образовательной и социальной сферах. В статье также анализируется государственная политика, направленная на повышение гендерного равенства, правового статуса и социальной активности женщин, с особым акцентом на роль женщин как важного фактора в устойчивом развитии общества.

**SUMMARY.** This article analyzes the role of women in the processes of social culture and their contribution to the development of society. Today, women's activism in cultural life is talked about their participation in the educational and social spheres. The article also analyzes public policies aimed at increasing gender equality, women's legal status, and social activism, noting that the role of women is an important factor in the sustainable development of society.

## ДИАЛОГ ТРАДИЦИЙ: ВЗАИМОДЕЙСТВИЕ ВОСТОКА И ЗАПАДА В ЖИВОПИСИ УЗБЕКИСТАНА 1970–1980-Х ГОДОВ

Шаропова Азиза Элдорбек кизи – базовый докторант (Phd)  
отдела «Изобразительное и декоративно-прикладное искусство»  
Институт искусствознания АН РУз

**Таянч сўзлар:** Ўзбекистон рангтасвири, ретсептсия, анъана, идентификация, Шарқ ва Ғарб, бадийий дискурс.

**Ключевые слова:** живопись Узбекистана, рецепция, традиции, идентичность, Восток и Запад, художественный дискурс.

**Key words:** painting of Uzbekistan, reception, traditions, identity, East and West, artistic discourse.

Во второй половине XX века в истории изобразительного искусства Узбекистана происходили важные художественные поиски. Именно в 1970–1980-е годы живопись республики развивалась на пересечении локальных традиций и глобальных культурных

тенденций. В этот период у художников Узбекистана наблюдается интерес к вопросам национальной идентичности, освоению опыта мировой художественной культуры и формированию новых художественных стратегий. В связи с этим особое значение в